Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 658

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA’MINOT ZANJIRINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH USLUBIYATI

Javoxir Olimjon o‘g‘li No‘manov*

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

✉ numanovjavokhir8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishida oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta’minot zanjirini boshqarish samaradorligini iqtisodiy baholashning uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgan. Ta’minot zanjiri faoliyatini kompleks baholash maqsadida ta’minot barqarorligi, zaxiralar aylanuvchanligi, logistika samaradorligi, mahsulot yo‘qotishlari va yetkazib berish ishonchliligini ifodalovchi beshta tarkibiy indeks asosida integral koeffitsiyent taklif etilgan. Indekslarni hisoblash, normallashtirish va vazn koeffitsiyentlari asosida umumiy samaradorlikni aniqlash tartibi yoritilgan. Shuningdek, integral koeffitsiyent qiymatlariga ko‘ra ta’minot zanjiri samaradorligini beshta darajaga ajratish mezonlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar

oziq-ovqat sanoati, ta’minot zanjiri, iqtisodiy baholash, integral koeffitsiyent, ta’minot barqarorligi, zaxiralar aylanuvchanligi, logistika samaradorligi, mahsulot yo‘qotishlari, yetkazib berish ishonchliligi, normallashtirish.

Kirish. Oziq-ovqat sanoati iqtisodiyotning ishlab chiqarish, qayta ishlash va iste’mol bozorini o‘zaro bog‘lovchi strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tarmoq korxonalarining iqtisodiy barqarorligi xomashyo resurslari bilan uzluksiz ta’minlash, ishlab chiqarish jarayonlarining oqilona tashkil etilishi, tayyor mahsulotlarni saqlash va iste’molchilarga yetkazib berish tizimining samaradorligiga bevosita bog‘liq [1]. Ishlab chiqarish faoliyatining barcha bosqichlarida moddiy, moliyaviy, mehnat va axborot resurslaridan foydalanish darajasi korxonaning yakuniy iqtisodiy natijalarini belgilaydi. Ta’minot zanjiridagi har bir operatsiyaning xarajatlar tarkibi, bajarilish muddati va resurslar sarfiga ta’siri korxona rentabelligi, mahsulot tannarxi hamda raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Ta’minot jarayonlarining nomutanosib tashkil etilishi xomashyo yetishmovchiligi, ortiqcha zaxiralar to‘planishi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanilmasligi va tayyor mahsulotlar harakatida uzilishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

J.T.Mentzer, M.Christopher hamda S.Chopra ilmiy ishlarida ta’minot zanjirini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, Mentzer ta’minot zanjiridagi korxonalararo integratsiya va moddiy oqimlarni muvofiqlashtirishga [3], Christopher logistika xarajatlari va raqobatbardoshlikni oshirishga [4], Chopra esa zaxiralarni boshqarish, transport va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga e’tibor qaratgan [5]. Ushbu ilmiy qarashlar oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta’minot zanjiri samaradorligini kompleks iqtisodiy baholashning nazariy asoslarini tashkil etadi.

V.I.Sergeev, B.A.Anikin va A.M.Gadzhinskiy tadqiqotlarida logistika tizimlarini tashkil etish, moddiy oqimlarni boshqarish, zaxiralarni optimallashtirish va transport xarajatlarini kamaytirish masalalari yori-

tilgan. Xususan, Sergeev ta’minot zanjirini strategik boshqarish va korxonalararo integratsiyani [6], Anikin logistika operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini [7], Gadzhinskiy esa xarid, ombor va transport jarayonlarini boshqarish masalalarini tadqiq etgan [8]. Ularning ilmiy yondashuvlari ta’minot barqarorligi, zaxiralar aylanuvchanligi va logistika samaradorligini baholash uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

M.M.Turg‘unov, A.S.Jamalova hamda S.P.Mavlanov ilmiy izlanishlarida oziq-ovqat sanoati va agrar tarmoqda boshqaruv mexanizmlari, mahsulot qiymat zanjiri hamda ta’minot va yetkazib berish tizimlarini takomillashtirish masalalarini o‘rgangan. Xususan, Turg‘unov oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruv mexanizmlarini [9], Jamalova sabzavotchilik mahsulotlari qiymat zanjirida saqlash va logistika samaradorligini [10], Mavlanov esa oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish, logistika infratuzilmasi va raqamlashtirish masalalarini tadqiq etgan [11].

Natija va muhokama. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta’minot zanjirini boshqarish samaradorligini baholash ishlab chiqarish jarayonining xomashyo bilan uzluksiz ta’minlanishi, modiy resurslardan oqilona foydalanish, logistika xarajatlarini nazorat qilish, mahsulot yo‘qotishlarini qisqartirish hamda tayyor mahsulotni belgilangan muddatlarda yetkazib berish holatini birgalikda tahlil qilishni talab etadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash muddati, xomashyo sifatining tez o‘zgarishi, ishlab chiqarishining mavsumiy xususiyatlari va iste’mol talabining o‘zgaruvchanligi ta’minot zanjirini boshqarishda alohida iqtisodiy mezonlardan foydalanishni taqozo etadi [12].

Korxona faqat logistika xarajatlari yoki zaxiralari hajmi asosida baholanishi ta’minot zanjirining umumiy holatini to‘liq ifodalamaydi. Masalan, zaxiralar hajmining kamayishi moliyaviy resurslarning bo‘shashiga olib keladi, biroq xomashyo yetishmovchiligi sababli ishlab chiqarishning to‘xtab qolish xavfini oshiradi. Xuddiy shuningdek, yetkazib berish xarajatlarini qisqartirish transport muddati va mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimoli mavjud. Shu bois samaradorlikni baholashda alohida ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik hisobga olinadi.

Taklif etilayotgan metodika beshta asosiy tarkibiy yo‘nalishni yagona integral ko‘rsatkichga birlashtiradi: ta’minot barqarorligi, zaxiralar aylanuvchanligi, logistika samaradorligi, mahsulot yo‘qotishlari va yetkazib berish ishonchliligi. Har bir yo‘nalish korxonaning ta’minot zanjiridagi muayyan iqtisodiy jarayonni tavsiflaydi [4]. Ularning o‘zaro integratsiyasi korxona faoliyatini faqat xarajatlar nuqtayi nazaridan emas, balki resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish uzluksizligi va buyurtmalarni bajarish sifati asosida ham baholashga xizmat qiladi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$I_{TZ} = (I_{TB}^{w_1} * I_{ZA}^{w_2} * I_{LS}^{w_3} * I_{MY}^{w_4} * I_{YI}^{w_5})$$

Bu yerda

I_{TZ} – ta’minot zanjirini boshqarish samaradorligining integral koeffitsiyenti;

I_{TB} – ta’minot barqarorligi indeksi;

I_{ZA} – zaxiralar aylanuvchanligi indeksi;

I_{LS} – logistika samaradorligi indeksi

I_{MY} – mahsulot yo‘qotishlari indeksi;

I_{YI} – yetkazib berish ishonchliligi indeksi;

w_1, w_2, w_3, w_4, w_5 – har bir tarkibiy indeksning integral bahodagi salmog‘i. Vazn koeffitsiyentlari yig‘indisi birga teng bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan 5 ta ko‘rsatkichlarni topish formulasi quyidagi jadvalda tizimlashtirilgan:

1-jadval

Tarkibiy indekslarni hisoblash formulalari

№	Indeks nomi	Hisoblash formulasi	Formuladagi belgilar va mazmuni
1	Ta’minot barqarorligi indeksi (I_{TB})	$I_{TB} = \frac{1}{T}\sum_{t=1}^{n} min(1; \frac{Q_t^{haq}}{Q_t^{tal}})$	Q_t^{haq}– t-davrda amalda yetkazib berilgan xomashyo hajmi; Q_t^{tal} – shu davrdagi xomashyo talabi; T – tahlil davrlari soni.

№	Indeks nomi	Hisoblash formulasi	Formuladagi belgilar va mazmuni
2	Zaxiralar aylanuvchanligi indeksi (I_{ZA})	$I_{ZA} = \frac{1-\lvert K_{ZA}-K_{ZA}^{*}\rvert}{max\{\lvert K_{ZA}^{\max}-K_{ZA}^{*}\rvert;\lvert K_{ZA}^{\min}-K_{ZA}^{*}\rvert\}}$	K_{ZA}– amaldagi zaxiralar aylanuvchanligi koeffitsiyenti; K_{ZA}^{*}– iqtisodiy maqbul aylanuvchanlik darajasi; $K_{ZA}^{\max}$va $K_{ZA}^{\min}$– tahlil chegaralari.
3	Logistika samaradorligi indeksi (I_{LS})	$I_{LS} = \frac{L_x^{\max}-L_x}{L_x^{\max}-L_x^{\min}}$	L_x – logistika xarajatlarining sotish tushumiga nisbati; $L_x^{\max}$– yuqori chegara; $L_x^{\min}$– quyi chegara.
4	Mahsulot yo‘qotishlari indeksi (I_{MY})	$I_{MY} = \frac{Y_m^{\max}-Y_m}{Y_m^{\max}-Y_m^{\min}}$	Y_m – mahsulot yo‘qotishlari darajasi; $Y_m^{\max}$ – yo‘qotishlarning yuqori chegarasi; $Y_m^{\min}$ – quyi chegara.
5	Yetkazib berish ishonchliligi indeksi (I_{YI})	$I_{YI} = \frac{N_{tm}}{N_j}$	N_{tm} – o‘z vaqtida va to‘liq bajarilgan yetkazib berishlar soni; N_j– jami yetkazib berishlar soni.

Integral koeffitsiyentni shakllantirish jarayoni korxonada ta’minot zanjirini tavsiflovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yig‘ish va ularni yagona baholash tizimiga keltirishdan boshlanadi [13]. Bunda ta’minot barqarorligi, zaxiralar aylanuvchanligi, logistika samaradorligi, mahsulot yo‘qotishlari va yetkazib berish ishonchliligi bo‘yicha haqiqiy ma’lumotlar tahlil qilinadi. Har bir ko‘rsatkich o‘ziga xos o‘lchov birligida ifodalangani sababli ularni bevosita o‘zaro taqqoslash to‘g‘ri natija bermaydi.

Xulosa. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta’minot zanjirini boshqarish samaradorligini iqtisodiy baholash ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi, resurslardan foydalanish darajasi va korxonaning moliyaviy natijalarini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Taklif etilgan metodikada ta’minot barqarorligi, zaxiralar aylanuvchanligi, logistika samaradorligi, mahsulot yo‘qotishlari va yetkazib berish ishonchliligi yagona integral ko‘rsatkich asosida birlashtirildi. Bu yondashuv ta’minot zanjirining alohida bo‘g‘inlarini emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda umumiy samaradorlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta’minot zanjirini boshqarish samaradorligini baholash uchun beshta tarkibiy indeksga asoslangan integral baholash metodikasini amaliyotga joriy etish taklif etiladi.

2. Korxonalarda xomashyo zaxiralari, logistika xarajatlari va mahsulot yo‘qotishlarini muntazam monitoring qilishga asoslangan raqamli nazorat tizimini shakllantirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. No‘monov, J. (2026). Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta’minot zanjirini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Innovations in Science and Technologies, 3(9), 164–174.

2. No‘monov, J. O. o‘g‘li. (2026). Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ta’minot zanjirini boshqarishning xorij tajribalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 4(9), 89–95. https://doi.org/10.5281/zenodo.23017666

3. Mentzer, J. T., DeWitt, W., Keebler, J. S., Min, S., Nix, N. W., Smith, C. D., & Zacharia, Z. G. (2001). Defining supply chain management. Journal of Business Logistics, 22(2), 1–25. https://doi.org/10.1002/j.2158-1592.2001.tb00001.x

4. Christopher, M. (2016). Logistics & supply chain management (5th ed.). Pearson.

5. Chopra, S. (2019). Supply chain management: Strategy, planning, and operation (7th ed.). Pearson.

6. Аникин, Б. А. (Ред.). (2002). Логистика (3-е изд.). ИНФРА-М.

7. Гаджинский, А. М. (2000). Логистика (3-е изд.). Информационно-внедренческий центр «Маркетинг».

8. Сергеев, В. И. (2014). Управление цепями поставок. Юрайт.

9. Turg‘unov, M. M. (2021). Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos ayrim xususiyatlari. Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali, 1(2), 65–75.

10. Jamalova, A. S. (2025). Foreign experience in improving the efficiency of the value chain in vegetable production. Agrobusiness, Science and Technology, 3(3). https://doi.org/10.68372/sqqryy38

11. Mavlanov, S. P. (2026). Optimization of the food supply and delivery system in Tashkent region. Muhandislik va Iqtisodiyot, 4. https://doi.org/10.5281/zenodo.22032633

12. Turg‘unov, M. M. (2023). “Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon-2023

13. Turg‘unov, M. (2024). Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(9). https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/2921